

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**QASHQADARYO VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**IJTIMOIIY-IQTISODIY FANLAR KAFEDRASI**



**2014-2015 YIL O'QUV YILINING YAKUNIDA O'TKAZILADIGAN  
TA'LIM SIFATI MONITORINGI NATIJALARIGA KO'RA "IQTISODIY  
BILIM ASOSLARI" FANIDAN O'QUVCHILARNING BILIMLARIDA  
ANIQLANGAN BO'SHLIQLAR BO'YICHA TAYYORLANGAN**

## *Metodik tavsiyalar*



**Qarshi-2015**

**Tuzuvchi:**

**“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar”  
kafedrasini o‘qituvchisi Z. Haydarov**

**Taqrizchi:**

**iqtisod fanlari doktori,  
professor N. Uzoqov**

*Mazkur metodik tavsiyada asosan umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘tkazilgan bilimlar bellashuvi viloyat bosqichi natijalariga ko‘ra aniqlangan va 2014-2015 o‘quv yilida ta’lim sifati monitoringi natijasida aniqlangan o‘quvchilar o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan va bo‘sh o‘zlashtirilgan mavzular uchun zarur bo‘ladigan metod, usul yoki uslublar, shuningdek, dars ishlanmalari keltirib o‘tilgan. Ushbu metodik tavsiya ijtimoiy fanlardan dars o‘tadigan o‘qituvchi, pedagog xodimlar va barcha ta’lim sohasining mazkur yo‘nalishiga qiziquvchi tinglovchilarga mo‘ljallangan.*

*Mazkur metodik tavsiya Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasining 2015 yil .....dagi .....-sonli va institut ilmiy kengashining 2015 yil .....dagi .....-sonli qarori bilan tasdiqlangan*

## **Mundarija.**

<b>Kirish.....</b>	
<b>1. Kapital.....</b>	
<b>2. Daromad va boylik.....</b>	
<b>3. Aholi daromadlari va xarajatlarining turlari.....</b>	
<b>4.Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining tabaqalanishi</b>	
<b>5. Dars ishlanmasi.....</b>	
<b>6. Asosiy tayanch tushunchalar:.....</b>	
<b>7. Atamalarni topish va uni guruhlar bilan tahlil qilish</b>	
<b>8. Testlar.....</b>	
<b>9. Mavzuga oid masala va mashqlar.....</b>	
<b>10. Qo'shimcha ma'lumotlar .....</b>	
<b>11.Sharx.....</b>	
<b>12. Adabiyotlar .....</b>	
<b>13. Vidio rolik .....</b>	

## KIRISH

O'zbekistonning bugungi kunda sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish hisobidan iqtisodiyotda sanoatning ulushi 25 foizga yetgan, eksportbop va raqobatdosh mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalarda ishlab chiqarilayotgan, kuch-qudrati va salohiyati yuksalib borayotgan mamlakatga aylanganini ko'rsatish;

- tarixan qisqa davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 5,5 barobardan ko'proq o'sgani, aholimizning real daromadlari jon boshiga hisoblaganda qariyb 9 barobar oshgani, bunga erishish uchun o'tgan davr mobaynida iqtisodiyotimizga 190 milliard dollar hajmidagi investitsiyalar, jumladan, 65 milliard dollardan ortiq xorijiy sarmoyalarni jalb etish hisobidan biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan avtomobilsozlik, neft va gaz kimyosi, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektronika, farmatsevtika, yuqori texnologiyalarga asoslangan oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati kabi soha va tarmoqlarga asos solinganini atroflicha yoritish;

- qishloq xo'jaligi sohasida mutlaqo yangi iqtisodiy munosabatlar joriy etilib, fermerlik harakati rivoji uchun keng yo'l ochib berilgani, bugungi kunda fermer xo'jaliklarimiz nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90-92 foizini ishlab chiqarayotgani, balki qishloq taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan qudratli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanib borayotganini ko'rsatib berish;

- 1990 yilda mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat tovarlari, avvalo don, kartoshka, go'sht, sut va qandolat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji import hisobidan qoplangan bo'lsa, hozirgi vaqtda ularning 96 foizi o'zimizda ishlab chiqarilayotgani, mustaqillik yillarida aholi jon boshiga go'sht iste'moli 1,3 barobar, sut va sut mahsulotlari — 1,6 karra, kartoshka — 1,7 marta, sabzavot — 2 barobardan ortiq, meva — qariyb 4 karra ko'payganini el-yurtimiz farovonligi tobora ortib borayotganining amaliy tasdig'i sifatida talqin etish;

- mustaqillikka qadar mamlakatimizda umuman mavjud bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig'ini ishlab chiqarayotgani, mazkur tarmoqda jami ish bilan band aholining 75-77 foizi mehnat qilayotgani va boshqa misollar orqali yurtimizda bu soha jadal rivojlanib, o'rta sinf — mulkdorlar sinfining jamiyat tayanchiga aylanib borayotganini namoyon etish;

- o'tgan davrda xarid qobiliyati bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi aholi jon boshiga 4 marta o'sgani va hozirgi kunda bu ko'rsatkich 6,5 ming AQSH dollaridan ziyodni tashkil etayotganini bu boradagi amaliy ishlarimizning yaqqol samarasi tariqasida aks ettirish;

- yurtimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi yildan-yilga ochilib, tobora obod va go'zal bo'lib borayotgani, jumladan, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar va infratuzilma tarmoqlarini barpo etish bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish; mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab aholimiz, birinchi navbatda keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar, jumladan, aholini qo'llab-quvvatlash va sotsial sohani mustahkamlashga ajratilayotgan yillik xarajatlar izchil oshib borayotganini, birgina 2014 yilda bu raqam 60 foizdan ortganini mazkur yo'nalishda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarimizning mantiqiy natijasi sifatida ko'rsatish;<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, Shanba, 18 Iyul 2015 00:00 shrift o'lchami \_\_

## KAPITAL

Kapital tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o'z-o'zidan ko'payuvchi, o'suvchi qiymat deb hisoblaydi. Ayrim g'arb iqtisodchilari ham, masalan, J.Klark, L.Valras, I.Fisherlar kapitalga daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar.

Qator g'arb iqtisodchilarining, jumladan D.Xayman, P.Xeyne, E.Dolon, J.Robinson, R.Dornbush va boshqalarning fikrini keltirib va ularni umumlashtirib, prof. V.D.Kamayev o'zining rahbarligida yozilgan darsligida «haqiqatdan ham — kapital o'zidan o'zi ko'payuvchi qiymat»<sup>2</sup> deb yozadi. Bunday fikr D.D.Moskvin, V.Y.Ioxin, A.G.Gryaznova, Ye.F.Borisov va boshqalarning rahbarligida nashr etilgan qator iqtisodiyot nazariyasi kitoblarida ham aytiladi. Lekin Amerika va yevropa mamlakatlaridan kirib kelgan «Ekonomiks» darsliklari va boshqa ayrim adabiyotlarda kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni hamma turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va boshqa shu kabilardan iborat deb ko'rsatadi, unga pul va tovarni kiritmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning sotsial mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama qarab, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni kuchaytirgan. G'arb iqtisodchilarining ayrimlari ham kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olgan bo'lsa, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiylikini e'tibordan chetda qoldirib, uning moddiy obyektini, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko'rsatadilar. Shuning uchun ular kapitalni doimiy, o'zgarmas tushuncha deb, ishlab chiqarish vositalarini kapital deb ataydilar. Biz bu ikki xil tushunchani bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy ko'rinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz. Biz kapital deganda o'z egalariga daromad keltiradigan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma sohalarida qo'llanadigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'larini, ularning ashyoviy tomoni va qiymatining birligini tushunamiz. Boshqacha qilib aytganda, **«kapital» ham qiymatga, ham nafilikka ega bo'lgan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan, yollanma mehnat (ishchi kuchi) tomonidan harakatga keltiriladigan vositalardir.**

Hamma adabiyotlarda yerga deyarli bir xil tushuncha beriladi, ya'ni yer **deganda tuproqning unumli qatlami, o'tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o'rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar tushuniladi.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e'tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. **Tadbirkor deb iqtisodiy resurslar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilarga aytiladi; bu xislatlar majmui esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi.** Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini,

---

<sup>2</sup> Qarang: Ekonomicheskaya teoriya: Ucheb. dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.D.Kamaeva. – 10-e izd., pererab. i dop. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2004, 217-bet.

ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha, ular yer va kapitalda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ularni alohida omil deb qarashga hojat yo'q.

### **Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni**

Jamiyatning iqtisodiy asosini, inson hayotiy faoliyatining manbaini tushunish uchun ishlab chiqarish jarayonining mazmunini ko'rib chiqish zarur.

**Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir.** Moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish jarayoni kishilar iqtisodiy faoliyatining asosiy tomonidir.


Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko'rinishini o'zining iste'moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan mehnat faoliyatidan iboratdir. Masalan, kishilar tabiatda mavjud bo'lgan yerdan foydalanib, turli hil dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlarini yetishtiradilar. O'rmonlardagi daraxtlardan foydalanib, ularning shaklini o'zgartirib, turli xil yog'och buyumlar yasaydilar, uylar quradilar. yer bag'rida (konlarda) mavjud bo'lgan turli rudalar (temir, mis, ruh, qo'rg'oshin va h.k.), mineral xomashyolardan foydalanib, o'zlari uchun zarur iste'mol buyumlari, ishlab chiqarish vositalari yaratadilar. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan hamda bir-birlari bilan o'zaro ma'lum munosabatda bo'ladilar.

Kishilar o'zlarining ongli maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini o'zgartiradilar va iste'mol uchun zarur bo'lgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar hamda tabiat o'rtasidagi moddalar almashinuvi bilan birga insonning o'zi ham har tomonlama kamol topib boradi, ya'ni kishilar o'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qo'llashni kengaytirib boradi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni iste'mol qiymatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir, tabiat yaratgan narsalarni inson iste'moli uchun o'zlashtirib olishdir, inson bilan tabiat o'rtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, inson hayotining abadiy tabiiy sharoitidir.

Ishlab chiqarishning **tarkibiy tuzilishi** muhim ahamiyat kasb etib, u turli sohalar, bo'linmalar, yaratilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini ifodalaydi. Eng avvalo, ishlab chiqarishni **moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga** ajratish lozim (2.2-chizma).

### **2.2-chizma**



## Xizmat ko'rsatish sohasi

O'z navbatida moddiy ishlab chiqarish sohasi **moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish** (masalan, avtomobil, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar va h.k.) va **moddiy xizmatlar ko'rsatish** (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar)dan iborat bo'ladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi ham **nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish** (masalan, musiqa asarlari, badiiy va ilmiy asarlar, ixtiro va kashfiyotlar) va **nomoddiy xizmatlar ko'rsatish** (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ga ajraladi. Bu sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

## Aholi daromadlari va xarajatlarining turlari.

«Daromad» iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, u serqirra va murakkab mazmunga ega hisoblanadi. Chunki, daromad bir vaqtning o'zida biron-bir faoliyat natijasida olingan tushumni, pul mablag'larini, natural ko'rinishda olingan mahsulotlarni, iqtisodiy resurslar keltiruvchi nafni va boshqa tushunchalarni ifodalashi mumkin. Shuningdek, daromad umumiy tushuncha bo'lib, uning tarkibida aholi daromadlari muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad topish hayot farovonligining kafolati bo'lib, iqtisodiy subektlarning daromad topishi va uni ko'paytirib borishi cheklanmagan. Aksincha, ularning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Bunday imkoniyatlar doirasida daromad manbalari turlarining xilma-xilligi ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda aholi daromadlarining farqlanishiga bozor va nobozor daromadlari ta'sir qilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bozor daromadlarining ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. *Bozor daromadlari* tarkibida tadbirkorlik daromadi muhim o'rin egallaydi. Chunki keyingi yillarda tadbirkorlar qatlami kengaydi va ular tobora iqtisodiy faollik ko'rsatib yuqori daromad sohibi bo'lmoqdalar. Yuqori daromadga ega bo'lish esa, bozor munosabatlari rivojlanishining muhim omiliga aylanib bormoqda.

Tadbirkorlik va uy xo'jaligining bozor tamoyillariga mos ravishda rivojlanishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq rivojlanish darajasining har-xil kechganligi bois, ularning daromad hosil qilishdagi ishtiroki ham turlicha bo'lmoqda. Tadbirkorlik faoliyatiga aholining tobora yangi qatlamlari tortilib borilayotganidan uning barcha xonadonlar daromadini hosil etishdagi roli kuchaymokda. Tadbirkorlik faoliyatida oilaviy hamjihatlik darajasining oshib borishi ham kuzatilmokda.

Aholining daromad topish usullari o'zgarib borsa, pul topish imkoniyatlari ham har-xil bo'ladi. Bu, birinchidan, kuch-quvvat va aqliy qobiliyatning har-xil bo'lishiga, ikkinchidan esa, oilaning mulk sohibi bo'lishi yoki bo'lmasligiga hamda mulkni samarali ishlatishga bog'liq. Binobarin, daromad topish uchun resurslar mavjudligiga va uning ishlatilishiga nisbatan shaxsiy daromad manbalari farqlanadi<sup>3</sup>. Aholi daromadlarining o'zgarishi asosan quyidagilarga bog'liq:

- mehnatga layoqatli kishida mujassamlashgan jismoniy va aqliy qobiliyatlarning ijtimoiy foydalilik yo'lida ishlatilishi;
- ishlab chiqarish vositalarini tasarruf etish darajasi doirasida kapital va mulkning harakati, uning daromad keltirishdagi ishtiroki;
- jamiyatda kishi imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishi uchun iqtisodiy erkinliklar va shart-sharoitlarning mavjudligi;
- davlatning iqtisodiyotni tartiblash va rivojlantirishda

---

<sup>3</sup> Usmonov S.N., Dodoboyev Y.T. "Bozor iqtisodiyoti asoslari", O'quv qo'llanma. T.: "Fan" - 1999. 56-bet.

qo'llayotgan usul va vositalarining nechog'li ko'zlangan natija berishi, daromadlarni qayta taqsimlashi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini iqtisodiy himoya qilishi;

➤ real investitsiyalar miqdorini oshirishga ko'mak beruvchi imtiyozlar doirasini kengaytirish asosida yangi texnika va texnologiyani qo'llash orqali mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish;

O'zbekistonda oldingi taqsimot usullari o'rniga taqsimotning bozor mexanizmiga asoslangan usullarining joriy etilishi aholi daromadlari tashkil topishining o'ziga xos yo'nalishini vujudga keltiradi. Taqsimot usullarining o'zgarishi, birinchidan, xo'jalik faoliyatidagi mulkning xususiylashtirilishi ta'sirida tadbirkorlik daromadi, foyda va % kabi daromad shakllarini yuzaga keltirsa, ikkinchidan, narx-navoning erkinlashtirilishi ta'sirida bozor narxining tebranib turishini va bozor konyunkturasi o'zgarishini hamda faoliyat yurituvchi subektlarning bozor o'zgarishlarini to'g'ri anglab yetishini ta'minlaydi. Natijada, daromadlarning qayta taqsimlanishidan iqtisodiy foyda ko'rish manfaati ortib boradi va yuqori daromadlilar qatlami vujudga kela boshlaydi. Uchinchidan, kishilarning o'z mol-mulkini mustaqil tasarruf etishlari va iqtisodiy manfaat ko'rish xohishiga qarab ishlatishlari mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlar shaklini yuzaga keltiradi. To'rtinchidan, daromadlarni o'stirishda har qanday cheklanishlarning bekor qilinishini qonuniy daromadlar miqdorining ortib borishini ta'minlaydi, soliq to'lovlari iqtisodiy rag'batlar ta'sirida ortib boradi, daromadlarning yuqori chegarasi soliqlar orqali tartibga solinib turiladi va yuqori daromad olishga halaqit beruvchi to'siqlar olib tashlanadi. Daromadlar tashkil topishining bozor va nobozor usullari daromadlarning farqlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bozor munosabatlari yuqori daromad olishning sharti sifatida ishbilarmonlikni birinchi pog'onaga ko'taradi. Tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy faoliyatning omili o'laroq, ishbilarmon kishilarning yuqori daromad darajasini belgilaydi.

Boy tabaqaning hissasi halol yo'l bilan yuqori daromad topuvchilar qatlamining oshib borishini bildiradi. Ular asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi kishilar, ya'ni ziyolilar va ishbilarmon dehqonlardan iborat.

Aholi daromadlari manbalari va shakllarining turli-tumanligi daromadlar farqlanishining bosh asosini tashkil etadi. Tabaqalashuv darajasi aholi jon soniga nisbatan namoyon bo'ladi. Daromadlarning umumiy darajasi esa, oila a'zolari jon soniga to'g'ri keladigan daromadlar miqdori bilan belgilanadi. Daromadi o'rtacha ish haqi va undan kam miqdorda bo'lgan oilalar soni daromadlarning umumiy darajasiga teskari nisbatda bo'lsa, daromadi o'rtacha ish haqidagi yuqori hisoblangan oilalar soni daromadlarning umumiy darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Oilalarning moddiy ta'minlanganligiga ko'ra, iqtisodiy farqlanishi daromadlarning umumiy darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bu umumiy daromadlar darajasining yuqori yoki kamligini daromadlar farqlanishida alohida ko'rib chiqish zarurligini talab etadi va tabaqalanishning har xil ko'rinishini keltirib chiqaradi. Bunday qonuniyatli holat respublikamiz viloyatlaridagi oilalarning daromad ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali yuzaga chiqadi.

Aholi daromadlarining hududiy tabaqalanishida oila jon boshiga to'g'ri keladigan miqdor hisobga olinadi. Daromatlardagi farq ijtimoiy guruhlar o'rtasida turmush darajasining farqlanishini bildiradi. Ijtimoiy guruhlar daromadlarining farqlanishi turli hududlarda har xil omillar ta'sirida yuzaga chiqib, viloyatlar bo'yicha daromadlar tarkibi o'zgarishining aniq darajada shakllanishini ko'rsatadi. Demak, iqtisodiyotning umumiy darajasi qancha yuqori bo'lsa, ijtimoiy tafovutlar bunga nisbatan yumshoq kechadi va aksincha, iqtisodiyot qancha qoloq bo'lsa, ijtimoiy tafovutlar chuqurlashib, daromatlardagi farq va ijtimoiy tabaqalanish kuchayadi<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Yakubov I.A "Balans muammolari" O'quv qo'llanma:T.:O'zYOUAJ nashriyoti 2004-yil, 48- bet.

Daromadlardagi farqlanish shahar va qishloq aholisining etnik guruhlarini tarkibiga ham bog'liq bo'lib, ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqish sabablaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda ham shahar oilalarining daromadlari qishloq oilalarining daromadlaridan ancha yuqori hisoblanadi. Bu farqlanish iqtisodning industrial va agrar sohalari o'rtasidagi tafovutdan kelib chiqadi. Etnik guruhlar daromadidagi farqlanish ish bilan mashg'ul bo'lish, bundagi daromadlar manbaining tabiati, oila miqdori, uning tarkibi va oiladagi ishlovchilar sonidan kelib chiqadi. Xulosa qilib aytganda, aholi daromadlarining farqlanishi jarayonida quyidagilarning ta'sirini e'tiborga olish zarur:

Birinchidan, aholi shaxsiy daromadlari tarkibining xo'jalik yuritish shakllari va mulkning turli-tumanligi zaminida tabaqalashgan tarzda o'zgarib boradi. Chunki olinayotgan shaxsiy daromadning asosiy manbai kishining shaxsiy mehnati va qobiliyatining yig'indisi hisoblanadi. Ikkinchidan, aholi shaxsiy daromadlari tarkibining xilma-xilligi daromadlar miqdoriga ta'sir qiladi. Bunda shaxsiy daromadni ko'paytirish manbai kishining nafaqat shaxsiy mehnatiga, balki u egalik qilayotgan mulkning miqdoriga, mulkiy ulushiga hamda sarflanayotgan kapital hajmiga bog'liq bo'ladi va ularga muvofiq ravishda o'zgarib boradi.

Uchinchidan, aholi daromadlarining farqlanishi bozor qonunlari ta'sirida bo'lib, shaxsiy daromadlarning kuchli tabaqalanishini keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida, aholining turmush darajasi va yashash tarzida o'z aksini topadi.

To'rtinchidan, iqtisodiyotning rivojlanishi bilan real iqtisodiy o'sishga erishish hayotiy ne'matlarning taqsimlanishida davlat ta'sirining kuchayishiga olib keladi. Natijada, aholiga ijtimoiy yordam berish ko'lami kengayadi.

Har bir insonning moddiy va ma'naviy turmush imkoniyatlari uning daromadlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Inson daromadining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning o'z zaruriy ehtiyojlarini qondirish salomatligini saqlash, dam olishni tashkil etish, ma'lumot olish, bo'sh vaqtini madaniy tarzda o'tkazish imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi.

Aholining pul daromadlari mehnatkashlar uchun ish haqi hisobidagi barcha pul mablag'lari tushumi; pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar mulkdan %, dividendlar, renta ko'rinishdagi daromadlar, aksiyalar qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva hayvonlari, tomorqa xo'jaligi mahsulotlari turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan pul tushumlari, turli xizmatlar ko'rsatish uchun haqlar va hokazolardan tashkil topadi.

**Aholining natural daromadlari** - qishloq xo'jalik mahsulotlarining barcha tushumlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari bog'-qo'rg'on, sabzavot-poliz ekinlari uchastkasi, shaxsiy tomorqa, tabiat in'omlaridan shaxsiy oilaviy ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan mahsulotlar kabi tushumlardan iborat.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samarasi insonlarning faravon hayot kechirishida aks etadi. Aholining turmush darajasi ehtiyojlarning qondirilish meyorini bilan o'lchanadi. Ehtiyojning asosiy jihati mahsulotlar iste'moli va qiymati hisoblanadi.

Ma'lumki, Respublikamiz statistikasida uy xo'jaliklari byudjetining daromadlar va xarajatlar qismlari o'rganiladi. Shunga asosan, uy xo'jaliklari byudjetining iste'mol va noiste'mol xarajatlari mavjud bo'lib, ular ham alohida-alohida tarkibiy qismlarga bo'linadi<sup>5</sup>. Xususan, uy xo'jaliklari byudjetining tarkibi xalqaro standartlar bo'yicha quyidagilarndan iborat:

- oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish;
- uydan tashqarida ovqatlanish;

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

- alkogol ichimliklar sotib olish;
- tabak mahsulotlarini sotib olish;
- shaxsiy iste'mol uchun nooziq-ovqat tovarlarini sotib olish;
- xizmatlar uchun to'lovlar;
- pensiya, nafaqa va stipendiya;
- ko'chmas mulkni sotish va arendaga berish daromadlari;
- mol-mulkni sotish va arendaga berish daromadlari;
- qarindoshlardan va boshqa shaxslardan moddiy yordam olish;

Uy xo'jaliklari byudjetining noiste'mol xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ko'chmas mulk sotib olish;
- yer, kvartira, uy-joy va boshqa binolar uchun arenda to'lovi;
- asalari, parranda, hayvonlarni sotib olish xarajatlari;
- ishlab chiqarish xizmatlari xarajatlari;
- shaxsiy xo'jalikni yuritish xarajatlari;
- soliqlar, badal va boshqa to'lovlar;
- qarindoshlarga va boshqa shaxslarga moddiy yordam berish;
- qayta sotish uchun tadbirkorlik va individual mehnat faoliyati uchun tovarlar sotib olish;
- bank muassasalariga quyilma;
- aksiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish;
- qarz, ssuda va kreditlarni qaytarish;
- boshqa noiste'mol xarajatlar.

Bundan tashqari, uy xo'jaliklari byudjetining pul daromadlari xalqaro standartlar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlardan yig'iladi:

Pul ko'rinishidagi daromad:

- ish haqi, bunga mukofot va ta'til pullari ham qo'shiladi;
- tadbirkorlik faoliyatidan daromad;
- aksiya bank quyilmalari, ulushlardan % lar va dividendlar;

Mahsulot va xizmatlarni sotishdan tushgan daromad, shu jumladan:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish;
- dehqonchilik mahsulotlarini sotish;
- chorvachilik mahsulotlarini sotish;
- alimentlar;
- boshqa daromadlar, masalan sug'urta to'lovi, lotoreya yutuqlari va hokazo;

Natura ko'rinishidagi daromad:

- shaxsiy tomorqa xo'jaligidan daromad;
- imtiyozlar;
- natura ko'rinishidagi boshqa tushumlar;

Bundan tashqari, aholi daromadlarining nominal va real ko'rinishlari mavjud<sup>6</sup>.

**Natural daromad** mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining- o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo'lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

**Nominal daromadlar** – bu ishlovchining muayyan turdagi ish (xizmat) larni bajargandan so'ng uning mehnatining natijasiga qarab (bunda albatta uning miqdori va sifati hisobga olinadi) beriladigan mehnat (ish) haqi ko'rinishidagi jami daromadlarini ifodalaydi.

**Real daromadlar** - iste'mol narxlarining indeksiga qarab tuzilgan joriy davrdagi nominal pulli daromadlardir. Real daromad jami pul daromadlaridan turli to'lovlar (soliqlar,

<sup>6</sup> Yakubov I.A. "Balans muammolari fanidan ma'ruzalar matni" ,T.:TDIU- 2005 yil 51-bet.

ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar) ajratib tashlangandan so'ngi qolgan pul daromadini iste'mol narxlar indeksiga bo'lish yordamida aniqlanadi:

**RD= Hominal daromad-turli xil to'lovlar/Iste'mol narxlar indeksi**

Hozirgi kunda aholining turmush darajasini tobora yaxshilanib borishida uning shaxsiy daromadlari ahamiyatligi bilan muhim o'rinni egallaydi. Aholining shaxsiy daromadi bir nechta eyementlarni o'z ichiga qamrab olgan tarkibiy guruhlardan tashkil topadi (1-jadval). Xususan, shaxsiy daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Ish haqi;
- Mehnat natijalarini sotishdan olingan daromad;
- Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad;
- Kapitaldan olinadigan daromad;
- Tavakkalchilikdan tushgan tushum;
- Qoldiriladigan daromad;
- Ijtimoiy daromad;
- Qarz daromadlari;
- Boshqa daromadlar.

Buning ichida eng asosiysi tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromad hisoblanib, ayni vaqtda aholi jami daromadlaridagi ulushi 60-70% ni tashkil etmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining keng rivojlangan kismi bu - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdir. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka qaratilayotgan katta e'tibor natijasida aholi daromadlari kundan-kunga oshib bormoqda. Xatto qishloq joylarda ham tadbirkorlik faoliyati keng qo'yilgan. Bundan tashqari, aholi daromadlarining hosil bo'lish xususiyatiga ko'ra, adolatli va adolatsiz daromadlarga bo'linadi<sup>7</sup>.

Aholining adolatli daromadi - bu insonning o'z peshona teri bilan topilgan, ya'ni uning aqliy va jismoniy qobiliyatiga ko'ra hosil bo'ladigan, uning mehnat unumdorligiga qarab qo'lga kelib tushadigan daromadlar majmuidir. Bunga misol qilib, ishchi va xodimlarning ish haqilari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan tushgan daromadlar va boshqa shunga o'xshash daromadlarni olishimiz mumkin.

Aholining adolatsiz daromadlari - bu insonning ko'proq, omadiga, uning tavakkalchilik qobiliyatiga ko'ra hosil bo'ladigan, ya'ni aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, insonda ko'p mehnat va vaqt talab qilmasdan topilishi mumkin bo'lgan daromadlar majmuidir. Adolatsiz daromadlarga lotereyadan chiqqan pul yutuqlari, meros qilib qoldirilgan daromad, jahon birjalarida sekundiga topiladigan millionlab pullar kiradi.

Ijtimoiy omillar ahamiyati o'sib borishi aholi turmush farovonligini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish muhimligini anglatadi. Shuning uchun har qanday islohotlar dastlab inson manfaatlarini ustun darajada e'tiborga olish zarurligini taqazo etadi.

Aholi daromadlarining turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib borishi daromadlar tabaqalanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Aholi daromad turlari: pul shaklidagi, natural shaklidagi va xizmatlar shaklidagi daromadlarga ajraladi. Bunday daromad turlari kelib tushishi jihatidan bir-biridan farq qilganligi bois daromadlarning farqlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Shuning uchun daromadlar shakllanishi va tabaqalanishi ularning bozor va nobozor daromadlarning hosilasi bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda aholining turmush darajasi yaxshilanib borishida uning shaxsiy daromadlari muhim o'rinni egallaydi. Aholining shaxsiy daromadi bir nechta eyementlarni o'z ichiga qamrab olgan tarkibiy guruhlardan tashkil topadi (1-jadval).

---

<sup>7</sup> A.O'Imasov, M.Sharifxo'jayev. "Itisodiyot nazariyasi", darslik. T.: "Mehnat", 1995. 123-bet.

**1-jadval.**

## Shaxsiy daromadlarning elementlari

№	Daromadlar Guruhlari	Elementlari
1	Ish haqi	- asosiy ish joyidan olinadigan daromad; - asosiy bo‘lmagan ish joyidan olinadigan daromad; - harbiy xizmatchilar pul mablag‘lari; - mavsumiy daromad; - boshqalar.
2	Mehnat natijalarini sotishdan olingan daromad	- fermer daromadi; - shaxsiy tomorqadan olinadigan daromad; - uy xo‘jaligidan tushgan daromad; - boshqalar.
3	Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad	- tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad; - boshqalar.
4	Kapitaldan olinadigan daromad	- aksiyalardan olinadigan dividendlar; - ijara haqi; - kapital foydasi; - quyilmalardan olinadigan foizlar; - boshqalar.
5	Tavakkalchilikdan tushgan tushum	- sug‘urta tavakkalchiligidagi to‘lov; - obligatsiyalar bo‘yicha yutuqlar; - lotereya yutuqlari; - sport musobaqalaridagi yutuqlar; - o‘yinlardagi yutuqlar; - har-xil konkurslardan yutuqlar; - boshqalar.
6	Qoldiriladigan Daromad	- meros; - sovg‘a; - xomiylik yordami; - alimlar; - muallif merosho‘rlariga qoldiriladigan daromad; - boshqalar.
7	Ijtimoiy daromad	- vaqtinchalik ishga layoqatsiz bo‘lgan ishchiga to‘lovlar; - homiladorlik va tug‘ishdan keyingi to‘lovlar; - bola tug‘ilishidagi to‘lov; - nogironlik nafaqalari; - boshqalar.
8	Qarz daromadlari	- bank kreditlari; - korxonalar kreditlari; - shaxslardan olingan qarz summalari; - boshqalar.
9	Boshqa daromadlar	- boshqalar.

Manba: Abakumova N.N., Podovalova R.Y. “Politika doxodov zarabotnoy platq”. M.: INFRA - M, 1999 42-s.

## **Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining tabaqalanishi**

Ijtimoiy omillar ahamiyati oʻsib borishi aholi turmush farovonligini sifat jihatidan yangi darajaga koʻtarish muhimligini anglatadi. Shuning uchun har qanday islohotlar dastlab inson manfaatlarini ustun darajada eʼtiborga olish zarurligini taqazo etadi.

Bozor iqtisodiyoti qonuniga koʻra, bozor munosabatlari sharoitida aholi daromadlari oʻrtasida tabaqalashuv yuzaga kelishi tabiiy bir holdir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqaruvchi subektlarning turli omillar taʼsirida tabaqalanishini yuzaga chiqaradi. Bunday tabaqalanish bozor talablari doirasida turlicha yondashuvlalar orqali, yaʼni majud iqtisodiy resurslar qay darajada samarali ishlatilishiga qarab, pirovard natijaning ham farqlanishiga olib keladi.

Inson manfaatlari ustun qoʻyilishi, iqtisodiy erkinlik kafolatlari berilishi farovonlikka erishish garovidir. Bunda iqtisodiy erkinlik daromad topish erkinligini keltirib chiqaradi. Daromadlar shakllanishi va tabaqalanishiga:

- ijtimoiy-iqtisodiy erkinlikka boʻlgan intilish;
- daromad keltiruvchi mulkka ega boʻlish, uni tasarruf etish va ishlatish;
- ijtimoiy subektlarning iqtisodiy jihatdan mustaqil boʻlishga moyilligi;
- bozor ishtirokchilarining imkoniyat darajasida kam resurs sarflab, koʻproq daromad olish va farovon hayot kechirishga boʻlgan harakati;
- erkin tadbirkorlik bilan shugʻullanish va buning uchun ijtimoiy institutlar xizmati talab darajasida tashkil etilganligi kabi iqtisodiy erkinlik omillari taʼsir koʻrsatadi.

Iqtisodiy erkinlik tadbirkorlik bilan shugʻullanishni iqtisodiy tabaqalanish sharoitida teng raqobatchilik orqali yuz berishini taqazo qiladi. Shuning uchun yuqorida sanab oʻtilgan iqtisodiy holat yuzaga

kelganida ishlab chiqaruvchi subektlarning iqtisodiy omillarga ega boʻlish va oʻzlashtirish jihatidan bir-biridan keskin farqlanishi obektiv jarayon sifatida namoyon boʻlib boradi<sup>8</sup>.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx nazorati va savdo-sotiq erkinligi iqtisodiyotning erkinlashishi sifatida tushuniladi. Lekin iqtisodiy erkinlikni taʼminlashda turli mamlakatlar milliy iqtisodiyoti xususiyatlaridan kelib chiqqan holda oʻzlarining erkinlashtirish qoidalarini ishlab chiqadi. Oʻzbekistonda iqtisodiy erkinlikni taʼminlashda, eng avvalo, nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlar faoliyatini chegaralash qoidasiga asosiy urgʻu berildi. Chunki oʻtish davri iqtisodiyotida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan oʻzgartirish silliq kehadigan jarayon emas ekanligi va buni tartibga solib turish zaruratining muhimligi natijasida davlat iqtisodiyot subektlari faoliyatiga aralashib turadi hamda iqtisodning birmuncha izga tushishi bilan ular erkinligini kengaytiradigan chora-tadbirlarni ishga solib boradi. Shu bilan birga, iqtisodiy erkinlikni taʼminlash borasidagi davlatning say-harakatlari daromad topish va uni oʻzi bilganday ishlatish uchun erkinlik berish, buning uchun obektiv mexanizm yaratilishini taqazo qiladi. Demak iqtisodiy erkinlik daromad erkinligini taʼminlash orqali yuz beradi.

Iqtisodiy erkinlik eng avvalo, mulk shakllarining turli-tumanligi bilan bogʻliqdir. Mulkiy plyuralizm xoʻjalik yuritish shakllarining xilma-xilligini taʼminlaydi. Daromad topishda mulkning ishtiroki, uning moddiy yoki mehnat shakllaridan qatʼiy nazar, bozor talabi doirasida amal qilib boradi. Bunda, bir tomondan iqtisodiyot subektlarining oʻzaro hamkorligida murosa yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan maksimum daromadga ega boʻlish borasida raqobat paydo boʻladi.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqaruvchi subektlarning turli omillar taʼsirida tabaqalanishini yuzaga chiqaradi. Bunday tabaqalanish bozor talablari doirasida turlicha yondashuvlar orqali, yaʼni mavjud iqtisodiy resurslar qay darajada samarali ishlatilishiga qarab, pirovard natijaning

---

<sup>8</sup> Abduraxmonov Q.X, Holmoʻminov SH.R. Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. T.: TDIU 2004. 58-bet.

ham farqlanishiga olib keladi. Demak bozor munosabatlarining subektlar faoliyatiga ta'siri ular olayotgan daromadlar darajasi, manbai va miqdorining ham har-xil bo'lishini yuzaga keltiradi.

Kishilarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan farqlanishi tabiiy yuz beradigan jarayon bo'lganligidan, ularning olayotgan daromatlari kam tabaqalashib boradi. Shuning uchun daromatlarni ilmiy tadqiq etishda uning tabaqalanishi tamoyiliga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi.

Aholi daromadlarining turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib borishi daromadlar tabaqalanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Aholi daromad turlari: pul shaklidagi, natural shaklidagi va xizmatlar shaklidagi daromatlarga ajraladi. Bunday daromad turlari kelib tushishi jihatidan bir-biridan farq qilganligi bois daromadlarning farqlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Shuning uchun daromadlar shakllanishi va tabaqalanishi ularning bozor va nobozor daromadlarning hosilasi bo'lishiga bog'liq bo'ladi.

Daromadlar tabaqalanishi iqtisodiy vaziyatning turli shart-sharoitlari ta'sirida kechadi. Bu borada daromadlar kelib tushishi jihatidan qonuniy va noqonuniy tus oladi. Iqtisodiy erkinlik darajasi qancha chegaralangan bo'lsa, shunga nisbatan daromadlar kelib tushishi ham yuqori bo'lishi mumkin. Ammo, bu qoida yashirin iqtisodiyot ishtirokchilariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmasligi mumkin. Shuning uchun daromadlar erkinligi huquqiy meyorlarga rioya qilish samaradorligini oshiradi. Albatta, daromad tushunchasi qonuniy yo'l bilan iqtisodiy natija sifatida namoyon bo'lishni anglatadi. Lekin, daromad topish uchun barcha subektlar ham to'g'ri yo'ldan boravermaydi. Shu bois, daromadlar tabaqalanishida turli manbalar hisobga olinishi kerak bo'ladi. Daromadlar mavjudligining o'ziga hos xususiyatlaridan biri - subektlarning qo'lga kiritgan daromatlari oshkora qilinishiga yo'l bermasligidir.

Alohida ta'kidlash joizki, hozirgi paytda bozor va nobozor daromatlari subektlarning iqtisodiy tabaqalanishiga asos sifatida ta'sir qilmoqda. Daromadlar tabaqalanishida bozor daromatlari iqtisodiy mavqei uning ta'sir doirasi kengayishi bilan bog'liqdir. Chunki bozor daromatlari kishilarning o'zini-o'zi himoya qilish qoidasiga bo'ysunadi. Daromadning bu turi bozor uchun ishlash, resurslarni samarali ishlatish va tan olingan natijaga to'lanadigan haq sifatida namoyon bo'ladi. Bozor daromatlari dastlab, daromad topish yo'lida resurslarni samarali taqsimlashda ishtirok etadi. Keyinchalik u resurslar sarfiga nisbatan ko'proq daromad olishda namoyon bo'ladi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi shakl va usullari doirasida daromadlar siyosati muhim o'rin tutadi. Bunda davlat daromatlarni qayta taqsimlab, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlab turishga intiladi<sup>9</sup>.

Nobozor daromatlari bozor uchun ishlash qoidasiga bevosita mos kelmaydi. Nobozor daromadlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar doirasida tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qiladi. Nobozor daromadlar tarkibiga o'zgaralar davlat himoyasiga muhtojlik qoidasiga amal qilish ham kiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat aholisining hammasi ham o'zini-o'zi daromad bilan ta'minlash imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun davlat kam daromadli aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Davlatning daromadlar borasidagi siyosatida ish haqi eng kam miqdorini belgilash va tirikchilik minimumini aniqlab borish asosiy o'rin tutadi. Tirikchilik minimumini aniqlashda har bir mamlakat o'ziga hos xususiyatdan kelib chiqadi. Bunda kambag'allikning kelib chiqishi sabablari o'rganilib, muhtojlik darajasi aniqlanadi. Shuning uchun aholi daromatlari tabaqalanishida bozor va nobozor daromadlar darajasi bevosita hisobga olinadi.

Hozirgi paytda respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlarida daromadlar tabaqalanishi turlicha kechmoqda. Bunday holat daromadlarning tabaqalanishi omillari farqlanishidan kelib chiqadi. Chunki har bir tarmoqda ish haqining farqlanishi ichki omillar hisobiga yuzaga chiqadi. Bir tarmoq ikkinchi tarmoq bilan o'zviy bog'liqligi ham pirovard natijalarga ta'sirini o'tkazadi.

---

<sup>9</sup> Abakumova N.N., Podovalova R.Y. "Politika doxodov i zarabotnoy plati" M.: INFRA - 1999. 213-str

Daromadlar tabaqalanishi xususiyatlarini izohlashda xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha ish haqining turlicha darajada ekanligiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Chunki islohotlar jarayoni tarmoqlarda turlicha kechmoqda va bu o'z navbatida, ish haqining ham har-xil bo'lishiga olib keladi.

Statistik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, 1991-1995 yillarda sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida ish haqi darajasi bo'yicha kuchli farqlanish sodir bo'lgan. Qishloq xo'jaligida ish haqi o'rtacha respublika darajasidan 30%, sanoat tarmoqlaridagiga nisbatan 2,3 marta farq qilgan. Qishloq xo'jaligida ish haqining nisbatan kam darajada ekanligi ishlab chiqarishning tabiiy shart-sharoitlarga bog'liqligi va mavsumiy xususiyat kasb etishi bilan birga, uning moliyaviy holati nochorligi bilan ham izohlanadi<sup>10</sup>.

Aholi daromadlari va xarajatlari o'rtasida hamisha tafovut mavjud bo'lishi real voqelikdir. Daromadning kelib tushishi va uning ishlatilishi holati turlicha bo'ladi. Aholining daromad topish qobiliyati va uni maqsadga muvofiq ishlatishi o'rtasidagi farq ham muhim rol o'ynaydi. Daromadlar tabaqalanishi dastlab, daromadlarning kelib tushishiga bog'liq holda yuz beradi. Daromadlarning ishlatilishi ham keyingi bosqich sifatida ijtimoiy tabaqalanishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy erkinlik daromadlar tabaqalanishini keltirib chiqaruvchi obektiv asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy erkinlikning qay darajada bo'lishiga qarab, daromadlar tabaqalanishi ham o'zgarib turadi. Iqtisodiy erkinlik va daromadlar tabaqalanishiga quyidagilar muhim ta'sir ko'rsatadi:

- xususiy mulk mavqei va ta'sir doirasining ortib borishi uning iqtisodiyotda yetakchi kuchga aylanishi;

- kichik va o'rta biznes rivojlanishi hisobiga iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun obektiv iqtisodiy vaziyat va mexanizm yaratilib boriladi. Natijada, daromadlar shaklan xilma-xil bo'lishi va ularning miqdor jihatidan o'sib borishiga erishiladi;

- ko'chmas mulk oldi-sotdi munosabatlari avj olishi hisobiga jamiyatda mulkdorlar sinfining tarkibiy qismi sifat jihatidan o'zgarib boradi va mulkiy tabaqalanishning yangi holati tashkil topadi;

- milliy va xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinishi real shaklda amalga oshirilishi uchun moddiy imkoniyatlar kengayishi kuzatiladi va daromadlardan investitsiya qilish yo'lida foydalanish darajasi ortadi;

- mamlakatda eksport o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish tarkibi shakllanishi va amal qilishi bozor turlarining yanada rivojlanishi hamda ularning ixtisoslashuvi kuchayishiga olib keladi;

- ishlab chiqaruvchilarning bozor talabi doirasida kuchli tabaqalashuvi sog'lom raqobat muhiti qaror topishini ta'minlaydi va bu daromadlar tabaqalanishida o'z ifodasini topadi;

- mamlakatning eksport salohiyati va qudrati ortishi natijasida uning jahon bozoridagi ta'siri ortib boradi.

Yuqorida ta'kidlangan ijobiy o'zgarish iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida bosqichma-bosqich ta'minlanadi.

<sup>13</sup>Bozor, pul va kredit" jumali, 2002 yil, №2, R. Hasanov - "Aholi daromadlarining tabaqalanishi", 34-36 betlar.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy adolatni ta'minlashda aholi daromadlarini shakllantirish siyosatining roli qanday?
3. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.
4. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering.
5. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar harakterlab beradi?
6. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va ularga tushuntirish bering.
7. O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlariga o'z fikringizni bildiring.

### 8-sinf

Iqtisodiy bilim asoslari fanidan “**Daromad va boylik**”  
mavzusidan ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha tayyorlangan dars ishlanmasining  
Texnologik xaritasi

Darsning mavzusi	Daromad va boylik
Maqsad vazifalari	1.O'quvchilarga daromad va boylik haqida quyidagi bilish va tushunish, qo'llay olish, tahlil qila olish, baholay olish kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. 2. O'quvchilarda daromad va boylikni qanday mehnatlar evaziga hosil qilishlari kerakligi haqidai bilish va tushunish, qo'llay olish, tahlil qila olish, baholay olish kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.
O'quv jarayonining mazmuni	Inson kapitali – bu kishining iqtisodiy qadr – qimmatini aniqlovchi kattalik.Insonning ma'naviy boyligi – uning dunyoqarashi, xulqi, odobi, madaniyati kabi ruhiy dunyosi bilan bog'liq fazilatlarini inson kapitalining asosiy tashkil etuvchilaridan hisoblanadi.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi.	<b>Metod:</b> Aqliy hujum, kommunikativ aloqa, bahs- munozara, raqamli yozma ish,mantiqiy fikrlash, Og'zaki bayon qilish. <b>Forma:</b> Kichik guruhlarda ishlash. Yakka tartibda ishlash. <b>Vosita:</b> Tarqatma materiallar. Tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam (yoki ruchka) slayd. <b>Usul:</b> Yozma materiallar; <b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, yozma javoblar. <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida.
Kutiladigan natijalar	1.O'quvchilarni bilimi, faolligini oshirish. 2.O'quvchilarni darsga qiziqishi ortadi. 3. Mustaqil va jamoa bo'lib, ishlashga o'rganadi. 4.O'z- o'zini nazorat qilishga o'rganadi.
Kelgusi rejalar (tahlili., o'zgarishlar).	O'quvchi O'z ustida mustaqil ishlash. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish. Pedagogik mahoratini yanada oshirish. O'quvchi. Mustaqil ishlashni o'rganadi. Qo'shimcha materiallar topadi.

Fan: " Iqtisodiy bilim asoslari"  
8-sinf ( 15 – dars).

## Mavzu: Daromad va boylik

Maqsadi: O'quvchilarga daromad va boylik haqida quyidagi bilish va tushunish, qo'llay olish, tahlil qila olish, baholay olish kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

### Vazifalari:

- insoning iqtisodiy qadr – qimmati – boyligini tashkil etuvchilarini bilish;
- Iste'molchilarning daromad manalarini hisoblash;
- nominal va real daromadlarni bir – biridan farqlay olish;


### Dars jarayonida egallashlari lozim bo'lgan asosiy atamalar:

- inson kapitali;
- moddiy kapital;
- boylik;
- ijara haqqi;
- omonat foizi;
- tadbirkorlik foizi;
- nominal daromad;
- real daromad.

### Darsga tayyorgarlik va darsga kerakli bo'lgan vositalar;

1. Vositalar; darslik, Prezident I.A.Karimov ishlab chiqqan bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili aks etgan slaydalar.(1-ilova).

2. Sinf tayyorgarligi: Dars jarayoniga guruhni shakllantirish, sinf partalarini joylashtirish va stol ustiga plastik kartochka, pul, menejer, fabrika, bozor rasmlari aks etgan kartochkalar qo'yiladi.



**Darsning turi:** yangi mavzuni bayon etish;

**Darsda qollanilgan metodlar;** Aqliy hujum, kommunikativ

aloqa, bahs- munozara, raqamli yozma ish, mantiqiy fikrlash, guruhlar bilan ishlash, ko'rsatish, suhbat;

### Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti:

1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni esga solish;	4 daqiqa
3	Yangi mavzuni yoritish: a) guruhda ishlash - 6 daqiqa b) taqtimot - 15 daqiqa c) umumlashtirish - 4 daqiqa	25 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	6 daqiqa
5	Darsga yakun yasash va baholash	5 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

## Darsning borishi.

### I. Tashkiliy qism;

O'quvchilar sinfga kirishadi ularning har biriga stol ustidagi rasmlar aks etgan kartochkalar olish tavsiya etiladi va rasmlar bo'yicha stolga o'tirish kerakligi aytiladi

### II. O'tilgan mavzular haqida suhbatlashish.

1. Mulk deb nimaga aytiladi?

Javobi; (Odamlar tomonidan o'zlashtirilgan va egalik qilish mumkin bo'lgan barcha narsalar).

2. Mulkdor deb nimaga aytiladi? Javobi; (mulkka egalik qiluvchi shaxs).

3. Umummilliy boylik deb ataladi? Javobi; (Yer, yer usti va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslarga aytiladi).

4. Xususiylashtirish deb nimaga aytiladi? Javob; (davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish jarayoni).

III. Sizlar bilan mulk va xususiylashtirish haqida bilimlarimizni eslab oldik.

### IV. Yangi mavzu: Daromad va boylik.

#### Mavzuning bayon qilish rejasi:

1). Inson kapitali

2). Moddiy kapital

3). Daromadlar.

4). Real va Nominal Daromad

(Matnlar ilova qilinadi).

1) Yangi mavzuni guruhlardagi o'quvchilar mustaqil o'qish orqali amalga oshiriladi.

2) Yangi mavzuni guruhlardagi o'quvchilar mustaqil o'qish orqali amalga oshiriladi.  
Guruhlarga:

1). Inson kapitali.

2). Moddiy kapital.

3). Daromadlar.

#### Mavzular yozilgan kartochkalar har bir guruhlariga tarqatiladi.

Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi ya'ni Jumladan; Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi. Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Ma'lumotni tahlil qiling.

Ma'lumotni bir-biringizga so'zlab bering.

1. Ma'lumotdagi tayanch so'zlarni ajrating.

2. Sinfda taqdimot qilish tayyorgarligi, guruh ishi uchun (6 daqiqa) vaqt ajratiladi.

1) Guruhlarning ishlash jarayonini o'quvchilarning ishtiroki kuzatib boriladi va kerak bo'lgan joylarga ko'rsatmalar beriladi.

2) Guruhlarning taqdimoti. (15 daqiqa).

Guruhlarning taqdimot qilish jarayonida o'quvchilar tinglaydilar va savol berishi aytiladi.

3) O'qituvchi tomonidan mavzular umumlashtirilgan holda qisqacha bayon qilinadi.

### V. Mustahkamlash.

1. Daromad deb nimaga aytiladi?

2. Boylik deb nimaga aytiladi?

3. Kim oilasiga keladigan daromad bilan qiziqib ko'rgan?

### VI. O'quvchilar bilimni baholash.

Topshiriqni bajarish uchun qaysi atamalarga murojaat qilasiz?

O'zingiz bilgan dehqon bozorida sotilayotgan biror qishloq xo'jalik mahsulotini tanlang. Bu mahsulot taklifga qanday omillar ta'sir qilishi mumkinligini va bu omillar

ta'sirida taklif qanday o'zgarishini mumkin. Bu topshiriqda qaysi atamalar ishlatilgan va uning mazmunini ayting.

## VII. Uyga vazifa:

Mavzuda ishlatilgan atamalardan "Boshqotirma" tuzing. Har bir o'quvchi "O'z oilangizning daromadi"ni hisoblab keling.

### Asosiy tayanch tushunchalar:

**Aholi daromadlari** - aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

**Nominal daromad** - aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

**Ixtiyorida bo'lgan daromad** - barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad.

**Real daromad** - narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olishga yetadigan quvvatidir. Qisqa qilib aytganda aholi daromadining harid quvvatidir.

**Lorents egri chizig'i** - daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlashni harakterlaydi.

**Ijtimoiy to'lovlar** - kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

**Ijtimoiy siyosat** - bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

**Aholini ijtimoiy muhofaza qilish** - davlat tomonidan aholiga barcha hayot kechirish shart-sharoitlarini yaratish uchun maqsadli yunaltirilgan kafolatlar tizimi.

**Aholini ijtimoiy himoyalash** - aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarining aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ta'sirini yumshatish.

**Aholining real daromadlari** - narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

**Daromadning mavjud miqdori (disposable income)** - sarf xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlarning qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar. Daromadlar va to'g'ri soliqlar orasidagi farq bilan aniqlanadi.

Ijara (polyak. - аренда va lat. arrendare - qarzga foydalanishga berish) - Shartnoma asosida buyumlarning vaqtinchalik foydalanishga belgilangan ijara haqi to'lovi asosida berilishi.

**Davriy talab** - har zamonlar zamonda paydo bo'lib, qondiriladigan va takorlanib turadigan talab.

**"Dala" tadqiqotlari** - bozorni o'z joyida o'rganish va bevosita yaqinlikda bozorning talablari, savdo jarayonlari qoidalari, mahsulot, narx va boshqa shartlari bilan har tomonlama tanishish.

**Daromadlarni indeksatsiyalash** - baholarning oshishi bilan bog'liq aholining qo'shimcha xarajatlarini vaqti - vaqti bilan ish haqi, pensiya, stipendiya va hakoazolarni oshirish orqali qoplash.

**Daromad (income)** - ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda).

**Daromadning mavjud miqdori (disposable income)** - sarf xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlarning qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar. Daromadlar va to'g'ri soliqlar orasidagi farq bilan aniqlanadi.

**Doimiy, davomiy inflyatsiya (chronic inflation)** - nisbatan yuqori yoki past inflyatsiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barqarorlikka erishgunga qadar davomli yuqori inflyatsiya darajasiga xos bo'lgan mamlakatlarga Braziliya, Isroil, Meksika, Peru, Argentinani misol qilib keltirish mumkin.

**Davlat byudjeti** - davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.





### 5. Xususiylashtirish...

- a) Xususiy mulkni davlat tasarrufidagi mulkka o'tkazish
- \*b) Davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish
- d) Korxonada mulkni davlat tasarrufidagi mulkka o'tkazish
- e) Jamoa mulkini xususiy mulkka o'tkazish
- f) Umum xalq mulkini davlat tasarrufidagi mulkka aylantirish.

6. Tadbirkorlikdan qaysi ko'rinishdagi daromad keladi?

- a) Renta,                      b) Foiz                      d) Divend                      e) Foyda                      f) Ish haqi

### 7. Qaysi guruhdagi daromadlar faqat ma'naviy boylikdan foydalanish evaziga orttiriladi?

- \*a) Mualliflik qalam haqi                      b) Divedent                      d) Renta                      e) Foiz                      f) Ijara haqi

### 8. Oila budjetida ...

- a) Kamomad bo'lishi hollari uchramaydi
- b) Faqat oilaviy chiqimlar keltiriladi.
- d) Faqat oilaviy daromadlar keltiriladi
- \*e) Oilaning ma'lum davridagi harajatlar va daromadlar keltiriladi.
- f) To'g'ri javob yo'q.

### 9. Reklama nima uchun kerak?

- a) Iste'molchilarga Tovar miqdori haqida ma'lumot berish uchun
- \*b) Iste'molchilarni yangi tovarlar va ularning xususiyatlaridan xabardor qilish uchun
- d) Sifatsiz tovarlarni sotib olishga undash uchun
- e) Iste'molchilarni rag'batlantirish uchun
- f) Ishlab chiqaruvchilarni jalb qilish uchun.

### 10. Bozorning asosiy vazifasi ...

- \*a) Ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarni bir biriga bog'lash uchun
- b) Soliqlarni yig'ish va boyliklarni taqsimlash
- d) Ishsizlikning oldini olish
- e) Pulning qadrini ushlab turish
- f) Narx-navoni nazorat qilish.

### 11. Fond birjasida nima sotiladi?

- a) Pullar                      \*b) Qimmatli qog'ozlar                      d) Katta hajmdagi tovarlar
- e) Ishchi kuchi                      f) Tovarlar

### 12. Pulning qanday vazifalari bor?

- a) Muomila, qiymat o'lchovi                      b) Jamg'arish, to'lov
- \*d) Muomila, qiymat o'lchovi, jamg'arish to'lov                      e) Omonot, jamg'arish
- f) To'g'ri javob yo'q.

13. Iqtisodiyotda ayiraboshlash qanday nomlanadi?

- a) Birja                      \*b) Barter                      d) Broker                      e) Barel                      f) Brutto

### 14. Qoyidagi iqtisodiy tizimlarning qaysi birida davlat mulkiga imtiyoz beriladi?

- a) Bozor iqtisodiyotida                      b) An'anaviy iqtisodiyotida
- d) Markazlashgan rejali iqtisodiyotda
- e) Aralash iqtisodiyotda                      \*f) To'g'ri javob yo'q.

15. Mehnat taqsimoti natijasida ....

- a) Daromad oshadi                      b) Resurslar tejaladi                      d) Resurslar to'la ishlatiladi
- \*e) Mehnat unumdorligi ortadi                      f) Chiqit bo'lmaydi.

### 16. Bozor bu ...

- a) Savdo rastasi                      b) Sotuvchilar uchrashadigan joy
- d) Qat'iy belgilangan hudud                      \* e) Xaridor va sotuvchi uchrashadigan maskan.
- f) Ishlab chiqaruvchining ish joyi.

17.. Markazlashgan va bozor iqtisodiyotining eng yaxshi elementlaridan iborat iqtisodiy tizim qanday nomlanadi?

- a) Aralash iqtisodiyot                      b) An'anaviy iqtisodiyot
- d) Markazlashgan rejali iqtisodiyot                      \* e) Bozor iqtisodiyoti                      f) To'g'ri javob yo'q.

## Mavzuga oid masala va mashqlar.

1. O'zbekistonda aholi pul daromadlari 2002 yili 5196,7 mlrd. so'm edi. 2003 yili 6488,6 mlrd. so'mga etdi. Iste'mol baholarining o'sish sur'ati 2002 yilga nisbatan 10,3%ni tashkil etsa, agar aholi 25,4 mln. kishidan 25,5 mln. kishiga ko'paydi desak, aholi jon boshiga pul daromadlari va real daromadlar qanday o'zgarganini hisoblang.

Aholining nominal va real daromadlari qanday daromad? Ularning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi. Izohlang.

**Javobi:** Aholi jon boshiga o'rtacha yillik jami daromad 2002 yili 204,9 ming so'm, 2003 yili 252,8 ming so'm, 123,3%. 2002 yilgi baholarda 254,9 ming so'm, 2003 yil 229,8 ming so'm, 111,8 % ga o'sgan.

2. Aholining pul xarajatlari va jamg'armasi 6211,0 mlrd. so'mni tashkil etadi, shundan 5107,4 mlrd. so'mi tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflangan. Agar 2002 yili, bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 5248,1 mlrd. so'm va 4387,6 mlrd. so'm bo'lib, aholi soni 25,4 mln. kishidan 25,5 mln. kishiga etdi desak, aholi jon boshiga iste'mol va jamg'arma qanday o'zgarganini hisoblang. Iste'mol darajasi va tarkibiga qanday omillar kiradi, ko'rsating.

**Javobi:** Aholi jon boshiga tovar-xizmatlar 2002 yili 173 ming so'm, 2003 yili 199 ming so'm bo'lgan. 2003 yil 115% o'sgan; 2002 yili 35,2 ming, 2003 yili 43 ming so'm jamg'arilgan. 2003 yilgi jamg'arma 2002 yilga nisbatan 12,2%ga o'sgan.

3. O'zbekistonda 2003 yili yaratilgan YaiM hajmi joriy baholarda 9664,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu 2002 yilga ishlab chiqarilgan YaiMdan 2194,8 mlrd. so'mga ko'p. Aholi esa 25,5 mln. kishiga etdi. 2002 yili esa 25,4 mln kishi edi. Narx o'rtacha 23,9%ga ortdi desak. Nominal va real YaiM o'sish sur'ati, YaiM aholi jon boshiga qanday o'zgarganini hisoblang. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilayapti? Izohlang.

**Javobi:** Nominal YaiM o'sish sur'ati 29%, real YaiM o'sish sur'ati 4,4%, aholi jon boshiga: nominal YaiM o'sish sur'ati 28,9, real YaiM 3,9% o'sgan.

4. 1932 yili AQShda fermerlar qarzi 12 mlrd. dollarga yetdi. Qishloq xo'jaligida olingan daromad shu yili 1929 yildagi daromadning 1/3 ga teng bo'ldi. Oziq-ovqat va sanoat tovarlari bahosi (1914 yili 100%) 1929 yili 89 % dan 55 % ga tushdi. Shunday sharoitda Prezident Ruzvelt kongressga ekin maydonlarini qisqartirish, 2 mlrd.dollar fermer qarzlariga hukumat tomonidan protsent to'lanishi kafolatlanishi yuzasidan tadbirlar ko'rishni taklif etdi. Bu vaziyatda davlat qanday funktsiyani bajaradi? Ba'zi kongressmenlar Ruzveltning taklifi Sovet Rossiyasidagi mavjud har qanday qonunga qaraganda ham ko'proq bolshevikchadir, degan fikrlar bildirishdi. Siz ana shu fikrga qo'shilasizmi? Javobingizni asoslang.

**Javobi:** Davlat daromad va resurslarni qayta taqsimlashni amalga oshirishni taklif etdi.

5. Joriy yilda fermerlar tomonidan sotilgan va sotib olingan tovarlar o'rtasida narx indeksi 120 va 165 bo'lgan. U holda nisbat qanday bo'ladi? Nisbat o'zgarishining ahamiyatini izohlang. Baho pariteti nima? Nima sababdan u sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari foydasiga o'zgarayapti? Fikringizni asoslang.

**Javobi:** Nisbat 120/165 bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish o'zgartirilmagan holda ham daromad 25%ga pasayadi.

6. Nima sababdan yaxshi ta'minlangan oilalarning ko'pchiligida ayollar to'la bo'lmagan ish kuni ishlashadi yoki umuman ishlashmaydi. Oiladagi bolalar soni, uy yumushlari kam ta'minlangan shunday oilalarnikidan ko'p emas. Bu erda qaysi effekt: o'rin bosishmi yoki daromad effekti ustun?

**Javobi:** Daromad effekti amal qiladi.

7. Odiljonning oldida ikki yo'l bor. To'rt yil davomida birjada etakchi mutaxassis bo'lib ishlab yiliga 720 ming so'm daromad topish. Ikkinchisi - bir yil «Bank va moliya akademiyasi»da o'qish. O'qish uchun 1 mln. so'm to'lanadi. O'qishni tugatgach unga bo'lim boshlig'i o'rnini va'da qilishyapti. Keyinchalik yanada yuqori lavozimlarga ko'tarilishi mumkin.

Uch yil davomida uning maoshi har yili 960 ming so'm bo'lishi mumkin. Sizningcha Odiljon qaysi yo'lni tanlagani ma'kul. Bank foizi darajasi yiliga 20% bo'lsin.

**Javobi:** Malakasini oshirgandan so'ng 3 yil davomida oladigan daromadi qilgan xarajatlaridan 365714 so'm ko'p. Undan tashqari kelajakda u orzu qilgan lavozimiga erishadi. Demak malakasini oshirgani ma'kul.

**8.** 2003 yili «Toshqishloq mash» OAJ 1630 mln. so'mlik mahsulot sotdi. «O'zqishloq mash» OAJda esa 764 mln. so'mlik mahsulot sotildi. Asosiy kapital(asosiy fond)ning o'rtacha qiymati muvofiq ravishda 3476 mln. so'm va 845 mln. so'm. Inlab chiqarish quvvati esa 3167 mln. so'm va 1421 mln. so'm. Korporatsiyalarning kapital(fond) unumdorligi, kapital(fond) sig'imi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini hisoblang. Natijani taqqoslang va ularning faoliyatiga baho bering. Ana shu iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuqori darajada bo'lishi uchun sizningcha nimalar qilish kerak? Fikringizni asoslab bering.

**Javobi:** kapital(fond) unumdorligi 1) 0,44 so'm; 2) 0,9 so'm;  
Karital(fond) sig'imi 1) 2,3 so'm; 2) 1,1 so'm;  
Ishlab chiqarish quvvatidan 1)48,5%; 2) 53,9% foydalanilgan

## **QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI I. KARIMOVNING**

### **“ONA YURTIMIZ BAXTU IQBOLI VA BUYUK KELAJAK YO'LIDA**

### **XIZMAT QILISH – ENG OLIY SAODATIDIR” ASARIDAN**

#### **SO'Z BOSHI O'RNIDA**

Ma'lumki, 2015 yil 29 mart kuni yurtimizda ulkan siyosiy voqea – O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovi bo'lib o'tdi.

Ushbu saylovda saylovchilarning 90, 39 foizi Tadbirkorlar va ishbilaronlar harakati – O'zbekiston liberal–demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimovga ovoz berdi.

Mazkur to'plamnig bosh g'yasini quyidagicha so'zlarda mujasam bo'lgan eng muhim o'zak fikrni tashkil etadi:

“Biz o'tgan davrda amalga oshirilgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda “Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?” degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat uylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim”.

Misollarga murojat qiladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda yurtimizning turli xududlarida amalga oshirilayotgan ulkan loyihalar –bu Surg'il koni neguzida Ustyurt gaz-kimyoy majmuasini barpo etish bo'ladimi, “Sho'rtangazkimyo” kompleksi yoki Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, “Samavto” korxonasi, “Angren”, “Navoiy”, “Jizzax” maxsus industrial zonalar bo'ladimi, Buxoro yoki Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlari, “Jeneral motrs-O'zbekiston” yoki MDH xududlarida noyob bo'lgan Toshkent viloyatidagi avtomobil divigatellari ishlab chiqaradigan korxon bo'ladimi, Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi, “Angren- Pop” elektrlashtirilgan temir yo'li yoki poytaxtimizdagi yangi- yangi ishlab chiqarish quvvatlari bo'ladimi bularning barchasi nafaqat bir xudud, balki butun mamlakatimiz miqyosidagi yirik loyihalar ekaniga alohida urg'u beriladi.

Masalan, Qashqadaryo viloyatida vohaning mavjud industrial salohiyatini yanada yuksaltirish maqsadida hozirgi vaqtda faqat neft-gaz, neft kimyo sanoatining o'zida qiymat salkam 10milliard dollarga teng bo'lgan 17 ta loyiha amalga oshirilmoqda 2020yilgacha viloyatda ayni shu sohada yana 11 milliard dollarlik 31 ta yangi loyiha joriy etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa kelgusi besh yilda faqat sanoat sohasining o'zida 500 ga yaqin yirik loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Bir vaqtlar – o'tgan asrning 90- yillarida yurtimizda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 14,1 foizini tashkil qilgan bo'lsa, mana shunday keng ko'lamlil amaliy ishlarimiz hisobidan bugungi kunda bu ko'rsatkich 25 foizini tashkil etmoqda.

Mamlakatimiz bo'yicha kelgusi besh yilda rizq ro'zimiz manbai bo'lgan yerlarning melorativ holatini yaxshilashga 1 trilion 860 milliard so'm, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun esa 3 trillion 144 milliard so'm va 584 million dollarlik xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekiston iqtisodiyoti 5 karradan ziyod o'sgani, mamlakatimiz aholisi 10,5 millionga ko'paygani holda, uning daromadlari qaryb 9 barobar oshgani, odamlarning o'rtacha yoshi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga uzaygani. Ayniqsa, keyingi o'n yil davomida jahondagi sanoqli davlatlar qatorida yalpi ichki mahsulotimiz 8 foizdan kam bo'lmagan suratlarda o'sayotgani va 2015 yilda ham shunday natija kutilayotgani chindan ham halqaro jamoatchilikning yaqin va uzoq yon atrofimizdagi qo'shni mamlakatlarning hayrati va havasini uyg'otmoqda.

Yaqinda Shveysariyada Jahon iqtisodiy forumi- "World Economic Forum" iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar reytingini e'lon qildi. Jahon bankining "Global iqtisodiy taraqqiyot" prognozi asosida tayyorlangan maskur ma'lumotlarda 2014 yildan 2017 yilgacha bo'lgan davrda yillik o'sish darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar orasida O'zbekiston 5- o'rinda qayd etilgani albatta ko'p narsadan dalolat beradi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu sohaning davlat byudjeti xarajatlardagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bunday ko'rsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNISEF, YUNESKO va boshqa nufuzli halqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu ro'yxatda O'zbekiston 158 mamlakat orasida 44-pog'onada, Mustaqil hamdo'stligi mamlakatlari orasida esa birinchi o'rinda qayd etildi. Aytish joizki, bundan ikki yil avval mazkur ro'yxatda mamlakatimiz 60- o'rinni band etgan edi.

Buyuk Britaniyaning nufuzli "Economist" jurnalining e'tirof etishicha, Vatanimiz poytaxti – azim Toshkent shaxri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 ta shahar orasida 58- o'rinni egallaydi.

1991 yilda mamlakatimiz aholisi 20million 500 ming kishi edi. Mustaqillik yillarida halqimiz 1,5 karra o'sdi 31 millionga yetdi.

**Ikkinchidan.** Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishi va istiqboli, aholining hayot darajasi va sifatini belgilab berishga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan **eng asosiy vazifa –bu xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik rivoji yo'lida barcha g'ov va to'siqlarni olib tashlash va bu sohaga to'liq erkinlik berishdan iborat.** Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy baki huzurida kichik biznes xususiy tadbirkorlik subektlarining eksport faoliyatini qo'llab – quvvatlash bo'yicha maxsus jamg'arma tashkil etilgan bo'lib, ushbu jamg'arma yordamida eksportga maxsulot yetkazib berish bo'yicha xorijiy sheriklar bilan 1 milliard 250 million dollardan ziyod hajmdagi shartnomalar imzolangan bo'lib, o'tgan yili, birinchi navbatda, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermer xo'jaliklari sohasida 840 million dollardan ziyod miqdordagi tovar eksporti amalga oshirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subektlarining 98 foizi soliq va statistika xisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni bevosita elektron shaklda amalga oshirmoqda. 2014 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes vaxususiy tadbirkorlik subektlariga 9 trillion so'mdan ortiq yoki 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar ajratildi. 2015 yilning 1 yanvaridan boshlab tadbirkorlar uchun daromad solig'i stavkasi 25 foizdan 15 foizga, qurilish sohasidagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushurildi.

**Beshinchidan.Halqimizning hayot sifati va darajasini oshirish** Joriy yilning o'zida 353 ta umumta'lim maktabini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, shuningdek, 147 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsetsyda qaryb 400 mliiard so'm hajmdagi kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

2020 yilgacha esa 500 ta umumta'lim maktabini qurish va kapital ta'mirlash, jumladan, 101 ta yangi maktab barpo etish va 810 ta kasb – xunar kolleji va akademik litseylarni kapital ta'mirlash rejalashtirilmoqda.

Tibbiyot sohasida 2015 yilda 98 million dollar hajmdagi mablag' hisobidan 83 ta tibbiyot muassasasini, 2020 yilgacha esa 180 million dollardan ziyod mablag' evaziga 230 ta tibbiyot muassasalari qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash nazarda tutilmoqda. Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy –joy qurish ishlarini davom ettirishga alohida e'tibor qaratiladi, 2015 – 2016 yillarda 2 milliard 100 million dollar qiymatidagi 25 mingta uy- joy bunyod etish mo'ljallanmoqda. Buning uchun Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot bankining mablag'lari jalb qilinishi belgilanmoqda.

Qishloq infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida faqat tabiiy gaz va elektr tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 2020 yilgacha 530 million dollar, telekommunikatsiyalar tarmog'ini kengaytirish uchun esa 136 million dollar miqdorida mablag' yo'naltirish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

**Oltinchidan. Mahalliyashtirish** 2000 yildan buyon mamlakatimizda import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 220 barobardan ziyod oshgani ham mahalliyashtirish va ishlarimizning qanday katta samara berayotganini ko'rsatadi. Hozirgi paytda mahalliyashtirilgan korxonalar nafaqat ichki bozorni to'ldirmoqda, balki ular eksport bozoriga ham chiqmoqda. 2014 yilda umumiy qiymati 1 milliard dollardan ortiq hajmda 550 turdagi mahalliyashtirilgan mahsulot eksport qilindi. Yurtimizda biz uchun butunlay yangi bo'lgan avtomobil sanoatining tashkil etilgani import o'rnini bosish bo'yicha olib borilgan oqilona siyosatning yorqin dalili hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston 27 ta rusumdagi yuk va yengil avtomobillar, avtobuslar, minivenlar hamda 15 turdagi zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqilmoqda. *Ana shu tarmoqlarning barchasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar har yili 4 milliard dollardan ziyod hajmdagi import tovarlar o'rnini bosish imkonini bermoqda.* Ushbu strategiyani yanada rivojlantirish maqsadida 2015-2019 yillarga mo'ljallangan yangi Mahalliyashtirish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod 600 dan ortiq loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan.

**Ettinchidan. Bugungi kunda taraqqiyot, tub tiarkibiy o'zgarishlar** Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 190 milliard dollardan oshdi va bu mablag'ning 65 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiyalar tashkil etadi.

Birgina 2014 yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida 14 milliard 600 million dollar miqdoridagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi va bu borada ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 11 foizga o'sdi. Ushbu mablag'ning 3 milliard dollardan ortig'i xorijiy investitsiyalardir.

Bugungi kunda qurilayotgan zamonaviy korxonalar qatorida Surg'il koni bazasida Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan Ustyurt gaz –kimyo majmuasining barpo etilayotgani xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning yorqin dalilidir.

Tub tarkibiy o'zgarishlar, strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom Taraqqiyot banki kabi halqaro moliya intitutlari sezilarli ravshda yordam ko'rsatmoqda. O'zbekiston ushbu institutlar tomonidan yo'naltirilgan kreditlar hajmi bugungi kunda 8 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. Investitsiya siyosati haqida gapirganda, shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ham katta miqdorda investitsiya sarflamoqda. Misol uchun, 2000 yildan 2014 yilgacha bo'lgan davrda irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish, yirik va o'ta muhim suv xo'jaligi obektlari faoliyati xavfsizligini va ulardan ishonchli tarzda foydalanish kafolatlarini oshirish uchun qariyb 1 milliard 300 million dollar hajmdagi mablag' yo'naltirildi. Bu mablag'ning 335 million dollar Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom Taraqqiyot banki kabi halqaro moliya intitutlari hisobidan jalb etildi. 2015 yilda irrigatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish maqsadida 390

million 600 ming dollar hajmdagi markazlashtirilgan kapital qo'yimalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Umuman olganda, 2020 yilgacha irrigatsiya tarmoqlarini yanada yaxshilashga markazlashtirilgan kapital qo'yimlar hisobidan 1 milliard 480 million dollar, jumladan, qiymati 1 milliard 100 million dollarga teng imtiyozli chet el kreditlarini yo'naltirish mo'ljallanmoqda.

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda infratuzilmani rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. So'ngi yillarda qariyb 2 ming kilometr avtomobil yo'llari xususan, O'zbekiston milliy avtomagstrali tarkibiga kiradigan 1,5 ming kilometr uzunlikdagi yo'l tarmoqlari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Temir yo'l sohasida 342 kilometr uzunlikdagi yangi "Navoiy – Uchquduq – Nukus - Sultonuvaystog'" va 223 kilometrlik "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" tarmoqlaribarpo etildi, Ayni paytda, yangi "Angren-Pop" elektrlashtirilgan temir yo'li va tog'li xududlar orqali o'tadigan 19 kilometrdan ziyod uzunlikdagi tunnel qurilishi nihoyasiga yetkazilmoqda.

### SHARX

"Iqtisodiyot" atamasi birinchi bor Aristotel tomonidan kiritilgan hamda odamlarning tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashdagi xo'jalik faoliyatini anglatgan.

Iqtisodiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga o'z vaqtida A.Smit yuqori baho berib, u insonni "homo economicus" - "iqtisodiy odam" deb atagan. Haqiqatdan ham, har bir odam iqtisodiyotning mohiyatini, hayot ne'matlari nimalar evaziga berilishini anglamaguncha, mablag'larni ishlab topish va ulardan samarali foydalanishni o'rganmaguncha, oila miqyosi va undan yuqori darajadagi iqtisodiyot uchun ma'qul keluvchi sifat va miqdor parametrlariga ega bo'ladi, deb o'ylash noto'g'ri bo'lar edi.

2014 yilda mamlakatimiz aviatsiya transportida yuk tashish hajmi avvalgi yildagiga nisbatan 8,5 foiz ortdi. "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi dunyodagi ko'plab yirik aviakompaniyalarni o'zida birlashtirgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasining (IATA) teng huquqli a'zosi bo'lgani, Navoiy shahri aeroporti negizida Xalqaro logistika markazi tashkil etilgani tufayli sohada ana shunday o'sish sur'ati ta'minlandi.

**Yurtimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokida tuzilgan besh yuzdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda.**

**O'zaro tovar ayirboshlash hajmi izchil o'smoqda.** Bu ko'rsatkich so'nggi 6 yilda 3 karra ortib, 2014 yilda 4,7 milliard AQSH dollariga yetdi. Joriy yilning birinchi yarmida o'zaro savdo aylanmasi 11,7 foiz o'sdi.

**2015 yilning birinchi yarmida mamlakatimizda jami 1033,4 kilometr suv quvurlari tarmog'i foydalanishga topshirildi.**

Bu yurtdoshlarimiz, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qilayotgan odamlarning sifatli ichimlik suvidan foydalanish darajasini oshirish, aholi punktlarining sanitariya holatini yaxshilash borasida hayotga tatbiq etilayotgan loyihalarning beqiyos samarasidir.

O'zbekistonning bugungi kunda sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish hisobidan **iqtisodiyotda sanoatning ulushi 25 foizga yetgan, eksportbop va raqobatdosh mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalarda ishlab chiqarilayotgan**, kuch-qudrati va salohiyati yuksalib borayotgan mamlakatga aylanganini ko'rsatish; mustaqillikka qadar mamlakatimizda **umuman mavjud bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig'ini ishlab chiqarayotgani**, mazkur tarmoqda jami ish bilan band aholining 75-77 foizi mehnat qilayotgani va boshqa misollar orqali yurtimizda bu soha **jadal rivojlanib, o'rta sinf — mulkdorlar sinfining jamiyat tayanchiga aylanib borayotganini namoyon etish;**

O'tgan davrda **xarid qobiliyati bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi aholi jon boshiga 4 marta o'sgani va hozirgi kunda bu ko'rsatkich 6,5 ming AQSH dollaridan ziyodni tashkil etayotganini bu boradagi amaliy ishlarimizning yaqqol samarasi tariqasida aks ettirish;**

O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralar dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgani, xususan, Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan reytingda iqtisodiyoti **eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida** mamlakatimiz **5-o'rinni egallagani**, shuningdek,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko‘magida AQShning Kolumbiya universiteti tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tadqiqotlar asosida e‘lon qilingan **“Butunjahon baxt indeksi”da Vatanimiz 158 ta mamlakat o‘rtasida 44-pog‘onani, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari orasida 1-o‘rinni egallagani** va boshqa misollar yordamida yurtimizning barqaror taraqqiyot sur‘atlarini teran ochib berish;

## ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.,T.: O'zbekiston,1996.
2. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod Vatan qolsin. Tom 2., T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Vatan sajdaxoh kabi muqaddasdir. Tom 3., T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Tom 4.,T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Tom 5.,T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov M.A.Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Tom 6.,T.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. Viz kelajagimizni o'z qo'limizni bilan quramiz. Tom 7.,T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoadi. T.: Uzbekiston, 1999.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz, Tom 8.,T.: O'zbekiston, 2000.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. Tom 9, T.: O'zbekiston, 2001.
- 12.Karimov I. A Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - bosh yo'limia «Xalq so'zi» 2002 yil, 15 fevral.
- 13.Makkonnell K.,Bryu S. «Ekonomiks», M.: Respublika,1992.,tom 1,2.
14. Borisov YE.F. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. M.: «Yurist»,1997.
- 15.O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. O'quv qo'llanma. T.: Mehnat,1997.
- 16.Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik dlya studentov vsshix uchebnk:zavedeniy. Kol. avt. K. Abduraxmonov i dr. T.: «Shark»,1999.
- 17.Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: O'zbekiston,1999.
18. G'ulomov S, Sharifxo'jayev M. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. T.: O'zbekiston,2000.
- 19.Shodmonov SH., Jo'rayev T. «Iqtisodiyot nazariyasi». Ma'ruza matnlari. T.; DITAF. 2000.
20. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik. Pod. Red. A.LDobrshina, L.S.Tarasevicha. - Sankt-Peterburg: izd «Piter», 2000.
- 21.Shodmonov SH.SH.,Alimov R.X.,Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. o'quv qo'llanma. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002-
22. Djumaqulov T.T., Safarova Z.G. Ispol'zovaniye trudov I.Karimova v prepodovaniy Ekonomicheskoy teorii i yego vklad v yeye razvitiye. T., «Abu Ali Ibn Sino» 2002.
23. Tojiboyeva D. O'quv qo'llanma. T., «O'qituvchi» 2002.

## QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Abulqosimov X.P., Xudoyberganov N.T. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga sopish muammolari. T.: «Universitet»D997.
2. Alekseyev Y.P. Mejdunarodnaya torgovlY. T.: 1997.
3. Krosovina L.N. Mejdunarodnge valyutno-kreditnme finansoviye otnosheniY. T.: 1997.
4. Abdullayev YO. Bozor iqtisodiyoti asoyelari. T.: «Mehnat»,1997.
5. Andreyev B.F. Sistemniy kurs ekonomicheskoy teorii: Uchebnoye posobiye.Chast 1X.glava 6 - Sankt-Peterburg. Lenizdat, 1998.
7. Nikolayeva I.P- Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik - T.: «Kno Rus», 1998.
8. Qo'ldoshev D., Muftoydinov Q. Iqtisodiy bilim asoslari. T.: «O'qituvchi», 1999.
- 9.Ekonomicheskaya teoriY. Ucheb. Posobiye: A.Dodirov i dr. TGTU: I., 1997.
- 10.Kurs ekonomicheskoy teorii. — M.: Izdatelstvo «Dis»,1997.
- 11.Yahyoyev Q.A. Soliq nazariyasi. T.: «Mehnat»,1998.

- 12.Vazeler U., Savob 3., Xaynrix Y., Kox V. Osnovm ekonomicheskoy teorii: prinsip!, problemt, politika. Uchebnik. - Sankt- Peterburg: izd. «Piter», 2000.
- 13.Abdullayeva SH.Z. Pul,kredit va banklar. T.: "Moliya" 2000.
- 14.Yahyoyev Q.A. Soliqqa tortirsh nazariyasi va amaliyoti.(darslik). T.:"Adabiyot va san'at",2000.
- 15.Ibratov B. Tadbirkorlik huquki. T.: «Moliya», 2001. 15.Butikov I. Qimmatli qog'ozlar bozori. T.: «Konsauditinform», 2001.
- 16.Yo'ldoshev M.,Tursunov Y. Bank huquqi. T.: «Moliya»,2001.
- 17.Hamdamiyov Q. Mikroiqtisod. {o'quv qo'llanma), T.: TDIU.,2001.
- 18.Hamedov I.A., Alimov A.M, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. (darslik). T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. "Adabiyot jamg'armasi",2001.
- 19.Sharifxo'jayev M.,Abdullayev YO. Menejment. T.: "O'qituvchm",2001. 20.Gerochenko V.P. Prognozrovaniye i plaaurovaniye ekonomiki. Minsk.,
20. "Novsh znaniye",2001. 21.Stolyarov I.I. i dr. Gosudarstvennoye regulirovaniye rnochnoy ekonomiki. Moskva. "Delo",2001. 22.Tomos T., Negl Xolden, Rid K. Strategiya i taktika senobrazovaniY. M.:"Piter", 2001.
- 21.Ryabov R.I. Nalogi. M.: 2001.
- 22.Koltinok B.A. Rnok sennmx bumag. Sankt-Peterburg. 2001.
- 23.G'ulomov S.S. Tadbirk or lik va kichik biznes. "Sharq" 2002.
- 24.P.Xeyne. Ekonomicheskij obraz mshsheniY. M., "Novosti", 1991.
- 25-Shodmonov SH., Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test savol-javoblari. T.; DITAF. 1998.
- 26.Marshall A. Prinsip politicheskoy ekonomiki. T.1, kn.SH, gl.3-6. Stoimost i poleznost. «Progrese», 1984.
- 27.Iqtisodiyot nazariyasi. (noiqtisodiy fakultetlar uchun ma'ruza matnlari). T. «Universitet». 1998.
- 28.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Shanba, 18 Iyul 2015 00:00 shrift o'lchami \_\_  
Pechat  
El. pochta  
Epson Pro WP-4025DW  
cms joomla
29. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajak yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatidir Toshkent- “O'zbekiston” 2015y